



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI**

# **"Xatti-harakatlarimizni qanday nazorat qilamiz?"**

Umumiy o'rta ta'lim maktab 4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari



## Mavzuning nazariy asoslari

Inson jamiyatda yashar ekan, uning xatti-harakatlari boshqalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois har bir inson o'zini to'g'ri tutishi, odob-axloq qoidalariga rioya etishi va boshqalarning huquqlarini hurmat qilishi kerak.

### Xatti-harakatlarni nazorat qilish nima?

Bu insonning o'z ishlarini **o'ylab bajarishini**, noto'g'ri harakatlardan tiyilishini va to'g'ri qaror qabul qilishini anglatadi.

### Nazorat qila olsak nima bo'ladi?

Agar inson o'zini nazorat qila olsa, u **odobli, mas'uliyatli va adolatli** bo'lib yetishadi.

### Axloq qoidalari nima?

Odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi **odob va tarbiya me'yorlaridir**.

# Axloq qoidalariga qanday amal qilinadi?

## Axloqiy me'yorlar ta'rifi

Axloqiy qoidalar – jamiyatda odamlarning **ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, burch, or-nomus, qadr-qimmat** haqidagi axloqiy tasavvurlariga mos ravishda o'rnatilgan xulq-atvor me'yorlaridir.

Ta'qiqlar, urf-odat va an'analardan farqli o'laroq, odamlar axloqiy me'yorlarga umumiy qabul qilingan tartib tufayli emas, balki **to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlar haqidagi o'z qarashlaridan** kelib chiqib amal qiladilar.

## Axloqli insonga xos xislatlar

- Birovning dilini og'ritmaslik
- Yordamga muhtojlarga ko'maklashish
- Tartib-intizomga rioya qilish
- Kattalarni hurmat qilish
- Yolg'on gapirmaslik



Axloqiy me'yorlarga rioya qilish ixtiyoriy bo'lsa-da, ularning bajarilishi **jamoatchilik fikri yoki insonning ichki e'tiqodi** bilan ta'minlanadi.

## Amaliy misol: Samimiylik

Dugonangiz o'ziga unchalik yarashmaydigan yangi soch turmagi qildirdi. U sizdan yangi soch turmagi unga yarashgan-yarashmaganini so'radi.

### Haqiqatni aytish

Siz haqiqatni aytib, dugonangizning ko'nglini og'ritishingiz mumkin. Bu samimiy, lekin unga og'riq berishi mumkin.

### Yolg'on gapirib xursand qilish

Yolg'on gapirib, uni xursand qilishingiz mumkin. Bu yolg'on hech kimga zarar keltirmaydi, hatto nazokat yuzasidan aytilgan gap deb hisoblash ham mumkin.



**Muhokama uchun savol:** Biroq yolg'on gapirib, dugonangizga nisbatan samimiy bo'lmaysiz... Bu vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz va nima uchun?



# O'z huquqlarimizni bilamizmi?

**Huquq** — bu insonga berilgan qonuniy imkoniyat va erkinliklardir. Har bir inson o'z huquqlarini bilishi kerak, chunki bu uning o'zini himoya qilishiga va adolat talab etishiga imkon beradi.



## **Ta'lim olish huquqi**

Har bir bola sifatli ta'lim olish huquqiga ega. Bu huquq qonun bilan kafolatlangan.



## **Xavfsiz muhitda yashash**

Har bir bola xavfsiz va qulay muhitda yashash huquqiga ega bo'lishi lozim.



## **Fikrini erkin bildirish**


Har bir bola o'z fikrini erkin bildirish va eshitisht huquqiga ega.





# Huquq va majburiyat: Ikki tomon

Jamiyatda insonlarning huquq va majburiyatlari mavjud. Har bir huquq bilan birga majburiyat ham keladi.



Haqiqiy fuqarolik fazilati — bu o'z huquqini bilish va undan **adolatli hamda mas'uliyat bilan foydalanish**dir.



## Amaliy misol: Telefon va vijdon

Yaqinda siz juda xohlayotgan yangi telefon modeli sotuvga chiqdi. U ancha qimmat, uni sotib olishga jamg'armangiz yetmaydi. Ota-onangiz esa sizga yangi telefon olib berishdan bosh tortishgan...

Do'kondan umidsiz chiqib kelayotganingizda, bir notanish odam oldingizga kelib, o'sha telefonni "qo'ldan" yarim narxiga sotib olishni taklif qildi. Siz telefon **o'g'irlangan bo'lishi mumkinligini** taxmin qilyapsiz, lekin bu modelga ega bo'lishni juda-juda xohlaysiz.

### ? Savol 1

Bu vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz va nima uchun?

### ? Savol 2

Agar bu taklifni tanishingiz aytsa, qaroringiz o'zgaradimi?

### ? Savol 3

Suhbatga guvohlar bo'lsa-chi?  
Bu holat qaroringizga ta'sir qiladimi?

# O'zgalarning huquqlarini hurmat qilish

O'zgalarning huquqlarini hurmat qilish — bu boshqalarning manfaatlarini inobatga olish, ularga ziyon yetkazmaslik va adolatli munosabatda bo'lish demakdir.

1

## So'zini bo'lmaslik

Birov gapirayotganda uning so'zini bo'lmaslik — bu eng oddiy hurmat belgisi.

2

## Umumiy mulkni asrash

Hammaga tegishli narsalarni ehtiyotkorlik bilan ishlatish va asrash.

3

## Imkoniyatni cheklemaslik

Boshqalarning imkoniyatini cheklemaslik va ularga teng huquq berish.



Agar inson faqat o'z manfaatini ko'zlab, boshqalarning huquqini hisobga olmasa, bu **jamiyatdagi muvozanatni buzadi** va adolatsizlikni keltirib chiqaradi.





# Amaliy misol: Velosiped yo'lagi

## Vaziyat

Shahar bog'ida bolalar uchun maxsus velosiped yo'lagi tashkil etilgan edi. Bu yo'lakda bolalar navbat bilan velosiped haydashi va bir-biriga xalaqit bermasligi lozim edi.

Bir kuni bir guruh kattaroq yoshdagi bolalar kelib, yo'lakni egallab oldi va boshqalarga yo'l bermay, tez-tez aylana boshladi.

Kichik yoshli bolalar yo'lakka chiqmoqchi bo'lganida, ular: *"Bu joy hamma uchun, kim chaqqon bo'lsa, o'sha minsin"*, deb javob berishdi.

## Muhokama savollari

- 1 Bu vaziyatda bolalar o'z huquqini to'g'ri tushungan deb hisoblash mumkinmi?
- 2 "Bu joy hamma uchun" degan fikrni qanday qilib to'g'ri tushunish kerak?
- 3 Qaysi harakatlar boshqalarning huquqini cheklashga olib keldi?
- 4 Bu holatni adolat nuqtayi nazaridan qanday baholash mumkin?



Yo'lak rasman barcha uchun ochiq bo'lsa-da, amalda ayrim bolalar uni o'zlarining **shaxsiy makonidek** ishlatishdi. Bu adolatli emasmi?

# Xulosa

Inson o'z xatti-harakatlarini boshqarishni o'rgansa, u **odobli, mas'uliyatli va adolatli** shaxs bo'lib yetishadi.



## Yoshligidan o'rganish

Bolalar yoshligidanoq o'zini idora etish, axloq me'yorlariga rioya qilish va boshqalarning haq-huquqlarini hurmatlashni o'rgansa...



## Hurmat va ishonch

Axloq qoidalariga rioya etish insonlar o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi.



## Adolatli jamiyat

Kelajakda **halol va adolatli jamiyat** barpo etishga hissa qo'shadi. Korrupsiya va adolatsizlikka qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

